



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56
16.	IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) <i>Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich</i>	61
17.	ФОРМИРОВАНИЕ РЫНКА ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСОВ КАК ОСНОВА РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ МОДЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ <i>Ким Татьяна Валерьевна</i>	65
18.	ОПЫТ ЮЖНОЙ КОРЕИ ПО ВНЕДРЕНИЮ СИСТЕМЫ КОРЕЙСКОГО ФОНДА КРЕДИТНЫХ ГАРАНТИЙ <i>Рахманов Бекзод Ибрагимович</i>	70

19	TRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	74
20	RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG'URTA SEKTORIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA ULARNI MILLIY SUG'URTA TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna</i>	76
21	НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОГО СТРАХОВАНИЯ В СТРАХОВОЙ ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА <i>Закирходжаева Ширин Акмаловна</i>	80
22	THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE LOGISTICS INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	84
23	O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLAR INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI <i>Mirzasalimova Ozoda To'lqin qizi</i>	88
24	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	90
25	IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA XIZMAT KO'RSATISH JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI <i>Ilhom Safarboyevich Shukurov</i>	92
26	GLOBALASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIK PIVOJLANISH QONUNIYATLARI <i>Mamatova Fotima Abdusalomovna</i>	96

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC instituti “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Baratova Dinora Alisherovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. "Sug'urta ishi" kafedrasida dotsenti
Email: gulzoda20@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu ishda O'zbekistonda sug'urta bozorining 2025-yildagi rivojlanish tendensiyalari, asosiy islohotlar, investitsiyalar va qonunchilik bazasi tahlil qilindi. Ishda aholi va tadbirkorlik sub'yektlarining sug'urta xizmatlariga bo'lgan ishonchini oshirish, raqamli texnologiyalar orqali xizmatlarni takomillashtirish, hamda "takaful" va "yashil sug'urta" kabi yangi mahsulotlarni joriy etish orqali bozorning rivojlanish imkoniyatlari tahlil qilindi. Tezida sug'urta bozorida ishlab chiqilgan qonunchilik chora-tadbirlari va islohotlarning natijalari hamda kelgusidagi istiqbollari ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: Sug'urta bozori, O'zbekiston iqtisodiyoti, raqamli texnologiyalar, sug'urta xizmatlari, takaful, yashil sug'urta, sug'urta mukofoti, sug'urta tovonlari, investitsiya faoliyati, iqtisodiy islohotlar.

Abstract: This work analyzes the development trends, key reforms, investments, and legislative framework of the insurance market in Uzbekistan in 2025. The work analyzes the opportunities for market development through increasing the trust of the population and business entities in insurance services, improving services through digital technologies, and introducing new products such as "takaful" and "green insurance". The thesis examines the results of the developed legislative measures and reforms in the insurance market, as well as their future prospects.

Keywords: Insurance market, economy of Uzbekistan, digital technologies, insurance services, takaful, green insurance, insurance premium, insurance payments, investment activity, economic reforms.

Абстрактный: В данной работе анализируются тенденции развития, ключевые реформы, инвестиции и законодательная база страхового рынка Узбекистана в 2025 году. Рассматриваются возможности развития рынка за счет повышения доверия населения и субъектов бизнеса к страховым услугам, улучшения услуг с помощью цифровых технологий и внедрения новых продуктов, таких как «такафул» и «зеленое страхование». В работе анализируются результаты разработанных законодательных мер и реформ на страховом рынке, а также их перспективы на будущее.

Ключевые слова: Страховой рынок, экономика Узбекистана, цифровые технологии, страховые услуги, такафул, зеленое страхование, страховая премия, страховые выплаты, инвестиционная деятельность, экономические реформы.

Kirish (Введение/Introduction).

So'nggi yillarda O'zbekistonda sug'urta sohasi mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangi O'zbekiston siyosati sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish, aholi va tadbirkorlik sub'yektlari uchun ishonchli va shaffof muhit yaratishga qaratilgan. Prezident qarori va Milliy agentlik (NAAP) hisobotlari asosida, sug'urta bozorida raqamli texnologiyalar joriy etilib, barcha shartnomalar Yagona axborot tizimi orqali elektron ro'yxatga olinmoqda. Shu bilan birga, majburiy va ixtiyoriy sug'urta turlari, shu jumladan transport vositalari, ko'chmas mulk, "takaful" va "yashil sug'urta" mahsulotlari ommalashtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 1 mart kuni «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilingan. Bu normativ xujjat sug'urta bozorini rivojlanishiga o'zining salmoqli xissasini ko'shib kelmokda.

Sug'urta bozorida yildan-yilga o'sish sur'atlari kuzatilayotgan bo'lsa-da, aslida bundan ham yuqori natijalarga erishish imkoniyatlari mavjud. Soha rivojining asosiy omili, bu – aholining sug'urta bozoriga bo'lgan ishonchini oshirish va mustahkamlash. Buning uchun, avvalo, aholi va tadbirkorlik sub'yektlarining sug'urta qildirish hamda sug'urta tovonini olishi oson, sodda bo'lishi kerak. Albatta bu o'rinda sug'urta tashkilotlari faoliyatining shaffofligini ta'minlash ham muhim sanaladi. Buning uchun ham bir qator chora-tadbirlar belgilandi. [1]

Hozirgi kunda sug'urta bozori professional ishtirokchilari faoliyatiga aralashmagan holda yagona axborot tizimida ularning faoliyati onlayn monitoring qilish, sohada xizmatlar sifati bo'yicha sug'urta tashkilotlari faoliyati reytingi yuritish, yo'lga qo'yilishi kutilmoqda, bunda asosiy mezonlar bu o'z vaqtida ko'rib chiqilmagan yoki to'lanmagan har bir sug'urta da'vosi hisoblanadi. Bunday holatlarga yo'l qo'yilgan sug'urta tashkilotlariga nisbatan esajarimlar qo'llaniladi. Yuqorida keltirilgan ushbu chora tadbirlar sug'urta bozoni rivojiga o'zining salmoqli xissasini qo'shadi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Tadqiqotni amalga oshirishda qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы /Literature review).

Mavzu bo'yicha tadqiqod olib borgan olimlar tomonidan turli maqola, risolalarda turlicha fikrlar keltirib o'tilgan. S. Abdimo'minovning "Jahon sug'urta amaliyoti asosida o'zbekiston sug'urta bozorida yangi rivojlanish yo'nalishlari" maqolasida hozirgi kunda sug'urta bozorida mavjud muammolarga zamonaviy tendensiyalar, o'zgarishlar sabab bo'layotgani bo'yicha fikrlar keltirilgan. [2]

B. Mirzayevning "Sug'urta bozorini rivojlanishda ta'sir etuvchi omillar" deb atalgan maqolasida "Sug'urta bozorining taraqqiy etishi nafaqat sug'urta faoliyatidan foyda olishga qaratiladi. Sug'urta bozordan keladigan naf - bu mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga dalda berish: turlar investitsion va tijoriy risklarni "qoplash", shu orqali tadbirkorlarda ma'lum ishonch hosil qilishga qaratiladi, va shuningdek aholining turli ijtimoiy xatarlardan himoya qiladi." kabi ma'lumotlarni keltirgan. [3]

Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ /Analysis).

O'zbekiston Respublikasi Ixtiyoriy loyihalar milliy agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yil 9 oylik ko'rsatkichga ko'ra umumiy sug'urta mukofoti 9,8 trillion so'mni tashkil etdi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 29% ga o'sdi. Shu bilan birga, hayotni sug'urtalovchi kompaniyalar sezilarli o'sishni ko'rsatib, 501,15 milliard so'm mukofot yig'ishdi, bu 2024 yilning birinchi choragiga nisbatan 244,0 foizga o'sishdir.

2025 yilning yanvar-mart oylari uchun jami sug'urta to'lovlari 643,64 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 13,6 foizga o'sdi. Shundan umumiy sug'urta to'lovlari 596,34 mlrd.

2025 yilning I choragi yakuni bo'yicha sug'urta kompaniyalarining jami majburiyatlari 2,778 kvadrillion so'mdan oshib, 2024 yilning shu nuqtasiga nisbatan 1,7 foizga kamaygan. [8]

Sug'urta sektoriga kiritilgan investisiyalarning umumiy hajmi 9,07 trillion so'mdan oshdi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 45,1 foizga o'sdi. Ushbu investisiyalarning asosiy qismi — 65,2 foizi bank depozitlariga, ikkinchi o'rinda 15,1 foizi qimmatli qog'ozlarga, 18,9 foizi ko'chmas mulkka joylashtirildi.

2025-yil 1-oktyabr holatiga ko'ra, O'zbekistonda 35 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatmoqda. Bulardan umumiy sug'urta kompaniyalari 29ta, ulardan oltitasi hayotni sug'urtalashga ixtisoslashgan.

Uchinchi chorak ma'lumotlariga ko'ra, "APEX INSURANCE" 1,009 milliard so'm bilan umumiy sug'urta segmentida yetakchilik qilmoqda. "MY-INSURANCE" 480,2 milliard so'm (53,4 foizga o'sish) bilan ikkinchi o'rinni, uchinchi o'rinni "GROSS SUG'URTA KOMPANIYASI" kompaniyasi 403,9 milliard so'm (25,9 foizga) egalladi. [4]

Hayotni sug'urtalash segmentida "APEX LIFE INSURANCE" 322,1 milliard so'm mukofot yig'ib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan hayratlanarli darajada 245,6 foizga o'sish bilan yetakchilikni saqlab qoldi. "TBC SUG'URTA" 124,1 milliard so'm (89,6 foizga o'sish) bilan ikkinchi, "ALFA LIFE INSURANCE" 29,3 milliard so'm (40,6 foizga o'sish) bilan uchinchi o'rinni egalladi.

Umumiy sug'urta doirasidagi sug'urta to'lovlari bo'yicha "APEX INSURANCE" 468,8mlrd. so'm o'zlashtirib, birinchi o'rinni egalladi. Keyingi o'rinni 217,9 milliard so'm bilan "MY-INSURANCE", uchinchi o'rinni 84,8 milliard so'm to'lov bilan "GROSS SUG'URTA KOMPANIYASI" egalladi.

Hayotni sug'urtalash yo'nalishida 73, 07 milliard so'm to'langan da'volar bo'yicha "APEX LIFE INSURANCE" yetakchilik qildi. "ALFA LIFE INSURANCE" 12,9 milliard so'm bilan ikkinchi, "O'ZBEKINVEST HAYOT SUG'URTA KOMPANIYASI" 7,8 milliard so'm bilan uchinchi o'rinni egalladi. [5]

Yuqoridagi natijalar bo'lishiga qaramay sug'urta bozorida ba'zi bir muammolar mavjud. So'ngi yillarda transport vositalari egalari sug'urta tashkilotlari tomonidan sug'urta tovonlarini o'z vaqtida to'lanmayotgani bo'yicha murojaatlar soni ortgan. Buning asosiy sababi, ushbu sug'urta turining zararlilik darajasi yuqori ekanligi, ya'ni 2019 yilda tasdiqlangan 56 ming so'mlik sug'urta mukofoti zararlarni qoplashga yetmayotganligidir.

Shu o'rinda ma'lumot uchun aytadigan bo'lsak, o'tgan 2023 yilda Toshkent shahrida zararlilik darajasi 146 foizni tashkil etgan. 2019 yildan boshlab barqaror belgilangan 40 million so'm sug'urta summasi yo'l-transport hodisalarida jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararlarni bo'yicha xarajatlarni yetarli darajada qoplamay qoldi. Jahon bankining statistikasiga asosan, O'zbekistonda iste'mol narxi indeksi oxirgi 5 yil davomida 160 foizga oshgan, bundan tashqari, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori o'sishi 265 foizni tashkil etgan, bazaviy hisoblash miqdori esa 168 foiz o'sish dinamikasini ko'rsatgan. Hozirda respublikamizda belgilangan sug'urta puli va sug'urta mukofoti yaqin qo'shni davlatlar hamda boshqa xorijiy mamlakatlar bilan solishtirganda eng kam ko'rsatkich hisoblanadi. Mazkur muammoning yechimi sifatida hisob-kitoblar asosida transport vositalari egalari va sug'urta tashkilotlari uchun maqbul sug'urta tariflari va summasini belgilash masalani birmuncha ijobiy yechim topishida yordam beradi. .

Sug'urta tashkilotlari xizmatlarini elektron shaklda ko'rsatish tartibini takomillashtirish, sug'urta va investisiya faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tanqidiy qayta ko'rib chiqish hamda zamonaviy talablarga muvofiqligini ta'minlash muhim sanaladi. [6]

Umuman olganda, Prezidentimizning yuqoridagi qarori asosida amalga oshiriladigan ishlar ko'lamini sug'urta bozorining rivoji va hal etilishi lozim bo'lgan masalalari yechimida ayni muddao bo'ldi. Shu bilan birga, sug'urta ishi bo'yicha sug'urta tashkilotlarining yuqori boshqaruv organlari xodimlarining malakasini muntazam oshirilishi nazarda tutilgan.

Xulosa va takliflar (Conclusions/ Заключение).

So'nggi yillarda O'zbekiston sug'urta bozori barqaror rivojlanish bosqichiga kirib, milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Prezidentning 2024 yil 1 martdagi qarori va Milliy agentlik (NAAP) tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar sohani tubdan modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va axborot texnologiyalarini joriy etishga keng imkoniyatlar ochib berdi. Ayniqsa, Yagona axborot tizimi orqali barcha sug'urta shartnomalarini elektron ro'yxatdan o'tkazish tizimining joriy qilinishi bozor shaffofligini oshirishda muhim omil bo'ldi.

2025 yil natijalari sug'urta mukofotlari, investisiyalar va bozor ishtirokchilari faoliyatida sezilarli o'sish kuzatilganini ko'rsatmoqda. Umumiy sug'urta va hayotni sug'urtalash segmentlarida tereng o'sish sur'atlari qayd etilgani sug'urta mahsulotlariga talab ortayotganini anglatadi. Shu bilan birga, sug'urtaga kiritilayotgan investisiyalarning 45,1 foizga ortishi sohaning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. [7]

Biroq bozordagi ijobiy dinamikaga qaramay, ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, transport vositalari egalari sug'urta tovonlarini o'z vaqtida undirolmayotgani, amaldagi tarif va sug'urta summalarining iqtisodiy real sharoitlarga mos emasligi, zararlilik darajasining yuqoriligi tizimda to'planib qolgan masalalardan biridir. Iste'mol narxlari indeksi va minimal ish haqi sezilarli o'sgan bir sharoitda, sug'urta mukofotlari va sug'urta summalarining uzoq yillar davomida o'zgarmasdan qolishi bozorda disbalans yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Shu bois, transport vositalari egalari uchun sug'urta tariflarini qayta ko'rib chiqish, sug'urta tovonlarini bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish, da'volarni ko'rib chiqish jarayonida shaffoflik va tezkorlikni ta'minlash ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Shuningdek, sug'urta tashkilotlari faoliyatini onlayn monitoring qilish, reyting tizimini joriy etish, da'volarni o'z vaqtida to'lamaydigan kompaniyalarga nisbatan sanksiyalar qo'llash sug'urta bozorida sog'lom raqobatni shakllantirishga xizmat qiladi. [9]

Umuman olganda, amalga oshirilayotgan islohotlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish va tartibga soluvchi me'yoriy baza takomillashtirish sug'urta bozorining izchil rivojlanishiga zamin yaratadi. Kutilayotgan o'zgarishlar aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchini oshirish, sug'urta xizmatlari sifati va qamrovini kengaytirish, shuningdek, iqtisodiyotning barqarorligiga hissa qo'shadi. Soha mutaxassislari va sug'urta tashkilotlari rahbarlari malakasining oshirilishi esa sug'urta bozorining kelgusi istiqbollarga kuchli asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. UzDaily.com. "O'zbekiston sug'urta bozori 2025-yilning birinchi choragida 18,8 foizga o'sdi", https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-insurance-market-grows-by-188-in-q1-2025/?utm_source=chatgpt.com
2. UzDaily.com. "O'zbekiston sug'urta bozori 2025-yilning birinchi yarmida 46 foizga o'sdi" https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-insurance-market-grows-46-in-the-first-half-of-2025/?utm_source=chatgpt.com
3. Prezident qarori, 2024-yil 1-mart, "Sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar". <https://lex.uz/docs/6824178>
4. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi hisobotlari, 2025-yil.
5. Fayziyev O., "Sug'urta bozorini rivojlantirish va yangi texnologiyalar joriy etish", UzDaily intervyu, 2025.
6. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi hisobotlari, 2025-yil.
7. Fayziyev O., "Sug'urta bozorini rivojlantirish va yangi texnologiyalar joriy etish", UzDaily intervyu, 2025.
8. Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li. (2026). Korxonalarda mehnat haqi hisobi va nazoratining innovatsion mexanizmlari. Insurance market of Uzbekistan, 3(3), 30–32. https://doi.org/10.55439/INS/vol3_iss3/430
9. Рахманов Бекзод Ибрагимович. (2026). Опыт южной корен по внедрению системы корейского фонда кредитных гарантий. Insurance market of Uzbekistan, 3(3), 70–73. https://doi.org/10.55439/INS/vol3_iss3/440